



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MONOPOLIYAGA QARSHI KURASH JARAYONLARI TAHLILI

Xatamov Ochildi Qurbonovich¹

Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li²

Fayzullayev Fazliddin Bozorboy o'g'li³

¹Termiz davlat universiteti Fizika-matematika fakulteti

Axborot texnologiyalari kafedrasida mudiri

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

²Termiz davlat universiteti iqtisodiyot va turizm fakulteti

Monopoliyaga qarshi boshqaruv va

raqobatni rivojlantirish yo'nalishi 2-kurs magistri,

³TerDU umumiy fizika kafedrasida o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6538684>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-may 2022

Ma'qullandi: 10- may 2022

Chop etildi: 14- may 2022

KALIT SO'ZLAR

Qo'mita, qonun, raqobat muhiti, kartel kelishuvlari, til biriktirish, insofsiz raqobat, tabiiy monopoliya.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining Monopoliyaga qarshi kurashuvchi vakolatli davlat organi hisoblangan Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasining faoliyati hamda respublikamizda monopoliyaga qarshi kurashish va raqobat muhitini rivojlantirish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasida monopoliyaga qarshi kurashda maxsus vakolatli organ "O'zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi kurash qo'mitasi" (keying o'rinlarda – Qo'mita) o'z faoliyatini raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlariga asosan olib boradi. Shuningdek, Qo'mita o'z zimmasiga raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik haqidagi ishlarni qo'zg'atish va ko'rib chiqish va ushbu qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikka tortish vazifalarini oladi. Raqobat qonunchiligini buzish bilan bog'liq masalalar 1996-yil 26-apreldagi "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, 1998-yil 28-dekabrda "Reklama to'g'risida"gi, 1999-yil 19-avgustdagi "Tabiiy monopoliyalar to'g'risida"gi (yangi tahriri), 2012-yil 20-dekabrda "Tadbirkorlik faoliyati

sohasidagi ruxsat berish tartib taomillari to'g'risida"gi Qonunlarda o'z aksini topgan. 1991-2012-yillarda raqobat qonunchiligini buzish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar yuqoridagi qonunlar va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan, ammo, hozirda raqobat qonunchiligini buzish bilan bog'liq masalalar 2012-yil 6-yanvarda qabul qilingan "Raqobat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga asosan ko'rib chiqilmoqda. Raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik haqidagi qonun hujjatlarni qo'zg'atish va ko'rib chiqish monopoliyaga qarshi organ tomonidan amalga oshiriladi. Qonunchilik hujjatlari va davlat organlari qarorlarining raqobat muhitiga ta'sirini baholash


Qonun va me'yoriy-huquqiy hujatlarni ishlab chiqishdan oldin ularni raqobatga ta'sirini baholash amaliyotini joriy etilishi tovar va moliya bozorlarini monopollashtirishning oldini olish, teng raqobat muhitini yaratishda muhim o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-yanvardagi PQ-4126-son Qaroriga asosan qonun hujjatlari va davlat organlari qarorlarining raqobat muhitiga ta'sirini baholash joriy etildi.

Natijada doimiy asosda tadbirkorlik subyektlarining faoliyatida raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlariga zid bo'lgan normlar o'ganib chiqilib, tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, raqobat muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan davlat organlarining qonun hujjatlari va

qarorlarini bekor qilish bo'yicha qonunchilik talablari asosida tegishli choralar ko'rib borilmoqda.

"Raqobat to'g'risidagi Qonunning 12-moddasida davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining amalga oshirishi taqiqlangan faoliyat turlari ko'rsatilgan. Ulardan biri bu faoliyatning biror sohasida yangi xo'jalik yurituvchi subyektlarni tashkil etishga cheklovlar joriy etishi, shuningdek faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirishni yoki muayyan tovarlar ishlab chiqarishni man etishidir. Ushbu turdagi noqonuniy harakatlar ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni beradigan davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va yuridik shaxslar birlashmalari tomonidan sodir etilishi mumkin.



3-rasm. Qonun hujjatlarini raqobatga ta'sirini baholash bo'yicha qilingan ishlar tahlili

Insofsiz raqobat amaliyotlariga, til biriktirishlar va kartel kelishuvlariga qarshi kurashish

Ushbu sohada O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasining vakolatli bo'limi

tomonidan "Intellectual mulk sohasidagi nohalol raqobat holatlarini ko'rib chiqishda belgilarni o'xshash yoki adashtirib yuborish darajasida o'xshashligini aniqlash bo'yicha uslubiy qo'llanma" va "Intellectual mulk huquqlarini buzgan nohalol tadbirkorlik subyektlari reestrini tuzish va yuritish tartibi" ishlab chiqildi va tasdiqlandi hamda amaliyotga joriy etildi.



Insofsiz raqobatga, til biriktirishlar va kelishuvlarga qarshi kurashish monopoliyaga qarshi organning asosiy vazifalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2013-yil 20-avgustdagi 230-sonli "Tovar va moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlar va bitimlarni aniqlash tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi.

Nohalol raqobatga chek qo'yish yo'nalishida 2013-2021 yillar davomida Qo'mita va uning hududiy boshqarmalari tomonidan jami 1124 ta kelib tushgan murojatlar o'rganilgan. Murojaatlarni o'rganish davomida qonunbuzilish holatiga yo'l qo'ygan xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan belgilangan tartibda ish qo'zg'atilgan va tegishli ko'rsatmalar berilgan.

Xalqaro munosabatlar va hamkorlik

O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi tomonidan iqtisodiy erkinlik indeksida mamlakatimiz mavqeini oshirish bo'yicha tartibga solish samaradorligi va bozorlarning ochiqligi subindikatorlari yo'nalishida chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan.

Global raqobatbardoshlik indeksida O'zbekiston o'rnini yaxshilash bo'yicha 2021-yilga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturining "Soliq va subsidiyalarning raqobatga ta'siri", "Korxonalarining bozordagi hukmronlik ko'lami" va "Xizmatlar sohasidagi raqobat" indikatorlar bo'yicha chora-tadbirlar ham ishlab chiqilgan.

Qo'mita tomonidan 2020-yilda "Raqobat to'g'risidagi qonuni

qo'llanilishida global muammolar: O'zbekiston Respublikasidagi tendensiyalar hamda Germaniya, Gong-Kong, Italiya, Yaponiya va AQSH kabi davlatlarining xalqaro amaliyoti" mavzusida xalqaro vebinar tashkil etilgan.

Qo'mita mutaxasislari salohiyatini oshirish bo'yicha trening hamda raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirishda ko'mak ko'rsatilmoqda.

Yevropa xavfsizligi va hamkorligi tashkiloti (YXHT) bilan birgalikda monopoliyaga qarshi komplaensni joriy etilishi borasida treninglar o'tkazilishi yo'lga qo'yilgan.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) bilan hamkorlikda "O'zbekiston Respublikasida raqobat siyosati va monopoliyaga qarshi organning salohiyatini baholash va takomillashtirish" loyihasi amalga oshirilganligini ham aytib o'tish joizdir;

Ushbu tashkilot tomonidan Qo'mitaga yangi tahrirdagi "Raqobat to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqish va me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirishda ko'mak va Qo'mita xodimlarining salohiyatini oshirish bo'yicha tadbirlar amalga oshirilgan.

Tovar, moliya va raqamli bozorlarni tahlil qilish va tartibga solish yo'nalishida

"2020-2024-yillarga mo'ljallangan tovar va moliyaviy bozorlarda raqobatni rivojlantirish strategiyasi"da iqtisodiy vazifalardan biri iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobat muhitini yaratish va tovarlar hamda xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirishdir.

Shunga ko'ra, tovar va moliya bozorlarida raqobat muhitini holatini aniqlash, xo'jalik yurituvchi subyektlar



duch kelayotgan tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy to'siqlarni aniqlash maqsadida Qo'mita tomonidan tovar va moliya bozorlarida tizimli tahlillar olib borilmoqda.

Bozordagi raqobatning rivojlanganlik darajasini va bozor ishtirokchilarining ustun mavqeni aniqlash, shuningdek, tegishli bozorning barcha ishtirokchilariga tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun teng imkoniyatlarni yaratish tovar va moliya bozorlarini tahlil qilishning asosiy maqsadlaridir.

Tovar va moliya bozorlarida raqobat muhitini holatini baholash maqsadida Qo'mita va uning hududiy bo'limlari tomonidan 2017-2021-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi tomonidan 573 ta tovar va xizmat bozorlarida o'rganish ishlari olib borilgan.

Iqtisodiyotdagi umumiy monopollashuvning kamayish tendensiyasi mamlakatdagi so'ngi yillar olib borilgan qator tizimli tarkibiy islohotlar natijasidir. Shuningdek, mamlakatimizda o'z vaqtida amalga oshirilgan ushbu islohotlar

natijasida raqobat muhiti sezilarli yaxshilangan, natijada, hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 2 baravarga oshgan (2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 475,2 mingtani tashkil etgan) va bozorlar monopollashuv indeksi darjasi 0,1 dan 0,048 gacha kamaygan.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi iqtisodiyot tarmoqlarida raqobat muhitini yaxshilash va monopoliyani cheklash borasida mamlakatimizda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asosan ish ko'radi va aniq dastur va yo'nalish asosida faoliyat olib boradi, jumladan, qonunchilik hujjatlari va davlat organlari qarorlarining raqobat muhitiga ta'sirini baholash sohasida, insofsiz raqobat amaliyotlariga, til biriktirishlar va kartel kelishuvlarga qarshi kurashish sohasida yoki boshqa shu kabi sohalarda o'z vakolatidan kelib chiqqan holatda faoliyat yurtishda me'yoriy-huquqiy hujjatlar ya'ni qonun, qaror va farmonlarga asosan ish yuritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi qonuni
2. O'zbekiston Respublikasining "Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida"gi qonuni
3. O'zbekiston Respublikasining "Monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida"gi qonuni
4. O'zbekiston Respublikasining "Tabiiy monopoliyalar to'g'risida"gi qonuni
5. A. O'lmasov, A. Vahobov. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent. "Iqtisod-Moliya". 2014.
6. X. T. Azizov. va boshqalar. "Raqobat huquqi". Darslik. T. 2006